

ONA TILI DARSLARIDA “SINF ICHIDA SINF” SHAKLIDA DARS O‘TISH

¹A.Kenjayeveva,

²L.M.Meliyeva,

³U.R.Yuldosheva,

Guliston shahar 2-maktab ona tili va adabiyot oqituvchilari,
maktab2*gul@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7524294>

Annotatsiya: Tayanch o‘quv rejada ko‘rsatigan boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan fanlar ichida haftalik ajratiladigan soatlarning eng ko‘pi ona tili darsiga ajratilgan. Bu esa yosh avlodning savodli bo‘lishida katta samara beradi.

Kalit so‘zlar: odob, o‘qituvchi, o‘quvchi, tarbiya, erkin, ijodkor, mustaqil fikr, ta‘lim, axloq.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng o‘zbek tili ham boshqa mustaqil davlat tillari singari xalqaro nufuzga ega bo‘ldi. Bu esa shubhasiz barchaning e‘tiborini qaratar edi. “Davlat tili to‘g‘risidagi qonunning yangi loyihasi tayyorlana boshlandi. 1995-yil 21-dekabrda qonunning yangi tahriri tayyor bo‘ldi. Unda ba‘zi qoidalarga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi. Hozirgi globallashuv, texnologiya, axborot asrida hamma narsa doimiy yangilanish va o‘zgarishga muhtojdir. Inqiloblar davri kechayotgan bir paytda, zamondan ortda qolmaslik uchun yugurish, kerak bo‘lsa uchish talab qilinmoqda.

Dunyoning narigi chekkasidan bu chekkasiga qadar axborot, ma‘lumotlar muayyan biror til vositasida almashinadi. Inson esa doimiy yangi va ishonchli axborotga tashnadir. Jahon bo‘ylab kechayotgan bu jarayonlarni biz o‘zimizning tilimiz orqali kuzatishimiz, bevosita xabardor bo‘lishimiz chinakam baxtdir. Kelajak avlodning, yurtdoshlarimizning, umuman, butun jamiyatning bu baxtdan masrurligi bizni yana ham quvontiradi. Birinchi Prezidentimiz o‘zlarining “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” asarida ta‘kidlaganidek: “Ma‘lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, ajdodlar orasidagi ruhiy-ma‘naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir!”

Boshlang‘ich sinflarda soddalashtirilgan, bola ongi va tafakkuri, qiziqish hamda ruhiyatidan kelib chiqqan holda oddiylikdan murakkablikka tomon mo‘ljallangan darslik, o‘quv qurollari, ta‘lim shakli shakllantirilgan bo‘lib, ilm olishga chanqoq o‘quvchilar tashnaligini qondirishga qaratilgan. Avvalombor, ota-ona bilimli, saviyasi yuqori, ma‘naviyatli bo‘lsa, farzandiga ham to‘g‘ri tarbiya bera oladi. Boshlang‘ich tarbiyani uyda olib maktabga keladigan

bo'lajak kadrlar uchun ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlikda, uzluksiz holda olib boriladi. Zero, "Bolalikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir!" maqoli bejizga emas. Bola ongiga kerak bo'lsa naqqoshlar kabi sinchkovlik bilan naqsh soluvchi hunarmand timsolida o'qituvchi o'zini ko'rib, ma'suliyat hamda uddaburonlik bilan to'g'ri yondashishi zarur. Avvalo, ularga ona tilimizni mukammal darajada o'rgatishimiz lozim. 1-sinflarda tashkil etiladigan ona tili darslari dastlab tayyorgarlik davri bilan boshlanadi. 1-sinfda ona tili fani tushunchasi savod o'rgatish davridan so'ng boshlanadi.

Ungacha o'quvchi harflarning yozma va og'zaki shakllari bilan tanishadi.

Bu davrda, asosan, ularda yozma nutq shakllantiriladi. Harflarni o'rganish jarayonida uning talaffuziga ham katta e'tibor beriladi. Umuman olganda, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi quyidagi qismlarga bo'linadi:

1. Savod o'rgatish metodikasi.
2. O'qish metodikasi.
3. Grammatika va imlo metodikasi.
4. O'quvchilar nutqini o'stirish metodikasi.

Bir haftada 5 kun o'qish bo'lsa, shuning to'rt kuni ona tili sabog'isiz o'tmaydi. O'zbek tilini o'rgatish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ayni bir paytda bu kabi ta'lim tizimidagi islohotlar suv va havodek zarurdir. "Temirni qizig'ida bos" deganlaridek, mustaqillikka erishganimizdan so'ng ta'lim tizimi, xususan, boshlang'ich ta'lim tizimiga juda katta e'tibor va o'zgartirishlar kiritildi.

Boshlang'ich sinfda o'tiladigan darslarda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanilib kelinmoqda. Jumladan, 1-sinf savod o'rgatish davrida "Alifbe" hamda "Yozuv" darslari o'zaro parallel va ketma-ket olib borilishi va bu darslarda ko'rgazmali multimedia vositalaridan unumli foydalanish bola diqqatining beqarorlashuvini oldini oladi. So'zda ma'no o'zgartiruvchi tovushlarning harfiy ifodasi yozuv darslarida o'rgatilsa, uning og'zaki shakli esa "Alifbe" darsida o'qitiladi. Oqish va yozish bir paytning o'zida o'zlashtiriladi. Ta'limdagi bu kabi qulayliklar ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qilishi shubhasiz, ammo uning sifatini pasaytiruvchi jihatlari ham yo'q emas.

Bilamizki, boshlang'ich ta'lim - ta'lim tizimining asosi hisoblanadi. Asosni mustahkam va ishonchli qo'ya olsakkina, kelajak imoratlarini, baland binolarini yaratishimiz mumkin. Puxta o'ylangan reja va metodlar yordamida bu maqsadga erishish anchayin osondir. Ammo shuni unutmaslik kerakki bu reja, metodlarni qo'llash uchun yaxshi tashkillashtirilgan butun bir jamoa zarurdir. Sinfdagi o'quvchilarni bir maqsad yo'lidagi jamoa sifatida shakllantrish esa bu jarayonning boshlang'ich nuqtasidir. Bolalar uchun jamoa shakli notanish

bo'lmaydi, chunki ular bog'chada kichik guruhlariga bo'lingan holda tashkil etilgan tizimning qatnashchisi bo'lib ulgurgan hisoblanadi. Yana o'yin faoliyatida jamoa nimaligini anglab yetgan bo'lishadi.

Bu boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun biroz yengillik beradi. Ammo quvonishga hali erta, chunki bola uchun birvarakayiga notanish bo'lgan muhit, kamiga notanish jamoa. Xo'sh, nima qilish kerak?

Buning uchun o'qituvchi bola psixologiyasini mukammal bilimdoni hamda malaka egasi bo'lishi kk(tajriba hali mavjud bo'lmagan hollarda). Shuningdek, o'zaro jamoaviy o'yinlar, umumiy savol-javoblar uyushtirilishi ham maqsadga muvofiqdir. Bunda tayyorgarlik davri ham juda muhimdir. Bolaga bu davrda maktab qoidalari, tartib intizomlari, o'quvchining burch – majburiyatlari haqida boshlang'ich tushunchalar beriladi. Yana “sinf”, “sinfdosh”, “sinfxona”, “tanaffus” va boshqa so'zlar ma'nosi ham o'zlashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun DTS. Toshkent – 2017.
2. Ernazarov G'. “Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi”. Toshkent-“Ilm Ziyos” – 2013.
3. Safarova R.G. va boshqalar. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. Toshkent-2014.